

**АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
КОМПЕТЕНЦИИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В НЕКОТОРЫХ
ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ И ОТДЕЛЕНИЯХ
САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ (2021–2024 гг.)**

Хамроев Мехрож Сирожхонович saminfo@kiut.uz

Руководитель курсов «Дневное и вечернее образование» Ташкентского
международного университета Кимё филиал Самарканд, Узбекистан, г.
Самарканд, ул.Х.Абдуллаева 63, Тел: +998 55 702 40 40

E-mail: saminfo@kiut.uz

Эшмуродов Султон Сувонкулович saminfo@kiut.uz

Руководитель заочного отделения
Ташкентского международного университета Кимё филиал Самарканд,
Узбекистан, г. Самарканд, ул.Х.Абдуллаева 63, Тел: +998 55 702 40 40

E-mail: saminfo@kiut.uz

Тошев Шерзод Уктамжонович proofst555@gmail.com

Резидент магистратуры 1-го курса Ташкентского международного
университета Кимё филиал Самарканд, Узбекистан, г. Самарканд,
ул.Х.Абдуллаева 63, Тел: +998 55 702 40 40

E-mail: saminfo@kiut.uz

АННОТАЦИЯ: В данной статье представлен всесторонний анализ потенциала научно-педагогических кадров и эффективности научной деятельности в ряде высших учебных заведений и их филиалов, действующих в Самаркандской области в 2021–2024 годах. В ходе исследования оценивались состав и динамика кадрового резерва высших учебных заведений, численность сотрудников, процент научного потенциала, доля профессоров и преподавателей с научными степенями, доля кадров с высокими показателями цитирования (Н-

индекс), а также активность публикаций, индексируемых в международных научных базах данных Web of Science и Scopus.

Кроме того, анализировались показатели международных и республиканских научных статей, монографий, учебников и пособий, патентов и свидетельств об авторском праве, отражающие эффективность научной деятельности. Для выявления тенденций развития образовательного процесса также рассматривались изменения квот на прием студентов и реальных показателей приема за прошедшие годы.

Результаты исследования показали, что темпы развития научно-педагогического потенциала в некоторых высших учебных заведениях Самаркандской области неравномерны: в одних наблюдается стабильная положительная динамика, в других – недостаточное формирование кадрового резерва и научной активности. Результаты исследования обосновывают необходимость систематического планирования научной деятельности, укрепления потенциала научных кадров и внедрения механизмов стратегического управления.

Ключевые слова: высшее образование, научный потенциал, научная деятельность, WoS/Scopus, кандидат наук, индекс Хирша, Самаркандская область.

ANALYSIS OF INDICATORS OF SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL COMPETENCE AND SCIENTIFIC ACTIVITIES IN SOME HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND DEPARTMENTS OF THE SAMARKAND REGION (2021–2024yy)

THE SAMARKAND REGION

Khamroev Mekhrozh Sirozhkhonovich saminfo@kiut.uz

Head of the Daytime and Evening Education courses at the Tashkent International Kimyo University Samarkand branch, Uzbekistan, Samarkand, H.Abdullaev St. 63, Tel: +998 55 702 40 40

Eshmurodov Sulton Suvonkulovich saminfo@kiut.uz

Head of external education at the Tashkent International Kimyo University Samarkand branch, Uzbekistan, Samarkand, H.Abdullaev St. 63, Tel: +998 55 702 40 40

Toshev Sherzod Uktamjonovich proofst555@gmail.com

1st year resident of the master's program at Tashkent International University Kimyo branch Samarkand, Uzbekistan, Samarkand, H. Abdullaev str. 63, Tel: +998 55 702 40 40 Email: saminfo@kiut.uz

ABSTRACT: This article provides a comprehensive analysis of the potential of scientific and pedagogical personnel and the effectiveness of scientific activity in some higher educational institutions and their branches operating in the Samarkand region for 2021–2024. During the research, the composition and dynamics of the personnel of higher educational institutions, the number of employees, the percentage of scientific potential, the share of professors and teachers with scientific degrees, the share of personnel with high citation indicators (H-index), as well as the activity of publications indexed in the international scientific databases Web of Science and Scopus were assessed.

In addition, the indicators of international and republican scientific articles, monographs, textbooks and manuals, patents and copyright certificates, reflecting the effectiveness of scientific activity, were analyzed. In order to identify trends in the development of the educational process, changes in student admission quotas and real admission rates over the years were also considered.

The results showed that the pace of development of scientific and pedagogical potential in some higher educational institutions in the Samarkand region is uneven, while in some institutions there is a stable positive dynamics, while in others there is

an insufficient formation of personnel turnover and scientific activity. The results of the study justify the need for systematic planning of scientific activities, strengthening the potential of scientific personnel, and the introduction of strategic management mechanisms.

Keywords: higher education, scientific potential, scientific activity, WoS/Scopus, PhD, H-index, Samarkand region.

SAMARQAND VILOYATIDAGI AYRIM OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA FILIALLARIDA ILMIIY-PEDAGOGIK SALOHIYAT HAMDA ILMIIY FAOLIYAT KO'RSATKICHLARINING TAHLILI (2021–2024 YILLAR)

Hamroev Mehroj Sirojjonovich saminfo@kiut.uz

Toshkent xalqaro Kimyo universitetining Samarqand filiali 1-kurs magistratura rezidenti, O'zbekiston, Samarqand, H. Abdullaev ko'chasi, 63, Tel: +998 55 702 40 40 Elektron pochta: saminfo@kiut.uz

Eshmurodov Sulton Suvonqulovich saminfo@kiut.uz

Toshkent xalqaro Kimyo universitetining Samarqand filiali "Sirtqi ta'lim" yo'nalishlari rahbari, O'zbekiston, Samarqand, H. Abdullaev ko'chasi, 63, Tel: +998 55 702 40 40 Elektron pochta: saminfo@kiut.uz

Toshev Sherzod Uktamjonovich proofst555@gmail.com

Toshkent xalqaro Kimyo universitetining Samarqand filiali 1-kurs magistratura rezidenti, O'zbekiston, Samarqand, H. Abdullaev ko'chasi, 63, Tel: +998 55 702 40 40 Elektron pochta: saminfo@kiut.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan ayrim oliy ta'lim muassasalari hamda ularning filiallarida 2021–2024 yillar davomida ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyati va ilmiy faoliyat samaradorligi kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim muassasalarining kadrlar tarkibi va dinamikasi, xodimlar soni, ilmiy salohiyat foizi, ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar

ulushi, yuqori iqtiboslanish ko'rsatkichlariga (H-indeks) ega kadrlar salmog'i, shuningdek, Web of Science va Scopus xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalarida indekslangan nashrlar faolligi baholandi.

Bundan tashqari, ilmiy faoliyatning natijadorligini aks ettiruvchi xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy maqolalar, monografiyalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, patentlar hamda mualliflik guvohnomalari ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Ta'lim jarayonining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida talabalar qabul kvotalari va real qabul ko'rsatkichlarining yillar kesimidagi o'zgarishi ham ko'rib chiqildi.

Olingan natijalar Samarqand viloyatidagi ayrim oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik salohiyatning rivojlanish sur'atlari notekis ekanini, ayrim muassasalarda barqaror ijobiy dinamika kuzatilayotgan bo'lsa, boshqalarida esa kadrlar almashinuvi va ilmiy faollikning yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari ilmiy faoliyatni tizimli rejalashtirish, ilmiy kadrlar salohiyatini mustahkamlash hamda strategik boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarurligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ilmiy salohiyat, ilmiy faoliyat, WoS/Scopus, PhD, H-indeks, Samarqand viloyati.

Kirish: Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-pedagogik salohiyati ularning ta'lim sifati, xalqaro reytinglardagi o'rni va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasini belgilovchi muhim omillardan biridir. So'nggi yillarda O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilmiy faoliyatni rag'batlantirish va xalqaro ilmiy makonga integratsiyani kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur maqola Samarqand viloyatidagi ayrim oliy ta'lim muassasalari va filiallarida ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyati hamda ilmiy faoliyat ko'rsatkichlarining yillar kesimidagi o'zgarishini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Tadqiqot maqsadi: 2021–2024 yillar davomida Samarqand viloyatidagi ayrim oliy ta'lim muassasalari va filiallarida ilmiy-pedagogik salohiyat va ilmiy faoliyat ko'rsatkichlarining dinamikasini baholash hamda rivojlanish tendensiyalarini aniqlash.

Tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqot ochiq statistik va institutsional ma'lumotlar asosida olib borildi. Tahlilda quyidagi ko'rsatkichlar qo'llanildi:

- xodimlar soni;
- ilmiy salohiyat (%);
- ilmiy darajalar (PhD) ulushi;
- H-indeksi ≥ 5 bo'lgan xodimlar ulushi;
- WoS/Scopus bazalaridagi nashrlar;
- xalqaro va respublika ilmiy maqolalar;
- monografiyalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar;
- patent va mualliflik guvohnomalari;
- talabalar qabul kvotalari va qabul ko'rsatkichlari.

Tahlil deskriptiv va qiyosiy usullarda amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari: Tahlil qilingan davrda TATU Samarqand filialida ilmiy salohiyat 2021 yildagi 38,5 % dan 2023 yilda 45,4 % gacha oshgan. Bu filialda ilmiy darajali kadrlar ulushi izchil ravishda ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq PhD darajasiga ega xodimlar ulushi 1 % dan past bo'lib qolmoqda.

Yil	od.	al. (%)	nv. (%)	or. (%)	hD (%)	≥ 5 (%)	oS/ Sc	alq .	esp .	on. .	ars .	o'l. at.	uall. G.	al.	vo.	ab.
TATU SF																
021	12	8.5 %	8.75 %	.6%	.9%	--	4	8	9			0	5	--	--	--
022	12	2.9 %	9.6 %	.5%	.9%	--	2	7	9			2	4	--	--	--

Yil	od.	al.(%)	nv.(%)	or.(%)	hD(%)	≥5(%)	oS/Sc	alq.	esp.	on.	ars.	o'l.	at.	uall.G.	al.	vo.	ab.
023	19	5.4%	9.3%	.0%	.8%	.8%	5	5	34	6	--	--	--	--	--	--	--
024	--	--	--	--	--	--	4	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--
TKXU SF																	
021	5	0.0%	2.67%*	--	.67%*	.67%*	--	--	--	--	--	--	--	--	147	000	76
022	0	3.33%	2.67%*	--	.00%*	--	--	--	--	--	--	--	--	--	630	000	697
023	5	0.0%	6.67%*	--	.00%*	--	--	--	--	--	--	--	--	--	484	200	11
024	0	.67%	9.33%*	--	.00%*	--	--	--	--	--	--	--	--	--	892	--	--
SamATI																	
021	2	0.0%	9.0%	.0%	.0%	.0%	2	4	8			0	--	--	--	--	--
022	7	6.0%	4.0%	.0%	.0%	.0%	7	1	2			3	3	--	--	--	--

Yil	od.	al.(%)	nv.(%)	or.(%)	hD(%)	≥5(%)	oS/Sc	alq.	esp.	on.	ars.	o'l.	at.	uall. G.	al.	vo.	ab.
2023	0	6.0%	6.0%	.0%	.0%	.0%	1	7	7			4		--	--	--	--
2024	--	--	--	--	--	--	6	6	55	2	4	1	--	--	--	--	--
TDIU SF																	
2021	2	2.0%	8.0%	.0%	.0%	.0%		0	3			0		--	--	--	--
2022	3	4.0%	9.0%	.0%	.0%	.0%		1	9			0		--	--	--	--
2023	01	2.0%	7.0%	.0%	.0%	1.0%	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--
2024	12	6.0%	3.0%	.0%	.0%	1.0%	1	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

TKXU Samarqand filialida ilmiy salohiyat ko'rsatkichlari yillar bo'yicha keskin tebrangan: 2021 yilda 10 % bo'lgan ko'rsatkich 2023 yilda 30 % ga yetgan, biroq 2024 yilda xodimlar sonining qisqarishi bilan birga keskin pasaygan. Bu holat ilmiy kadrlar tarkibining barqaror emasligini ko'rsatadi.

SamATI ilmiy salohiyat bo'yicha nisbatan barqaror muassasa bo'lib, ko'rsatkichlar 46–50 % oralig'ida saqlangan. TDIU Samarqand filialida esa ilmiy salohiyat 2021 yildagi 32 % dan 2024 yilda 46 % gacha oshgan.

WoS/Scopus bazalaridagi nashrlar soni barcha muassasalarda nisbatan past bo'lib, faqat ayrim yillarda ijobiy siljish kuzatilgan. Xususan, TDIU Samarqand filialida H-indeksi ≥ 5 bo'lgan xodimlar ulushining 21 % gacha oshishi yuqori iqtiboslanuvchi ilmiy ishlar paydo bo'layotganini ko'rsatadi.

Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy maqolalar soni ayrim muassasalarda (TATU SF, SamATI) izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, umumiy ko'rsatkichlar hududiy salohiyatga nisbatan past darajada qolmoqda.

Monografiyalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar nashri asosan SamATI va TDIU Samarqand filialida faol olib borilgan. Xususan, SamATIda 2024 yilda o'quv qo'llanmalar sonining keskin oshishi ta'lim-metodik ishlarning faollashganini ko'rsatadi.

Patent va mualliflik guvohnomalari soni juda kam bo'lib, innovatsion faoliyat yetarli darajada rivojlanmaganini ko'rsatadi.

TKXU Samarqand filialida talabalar qabul kvotalari va real qabul ko'rsatkichlari juda yuqori bo'lib, ayrim yillarda qabul 7–12 ming nafarni tashkil etgan. Bu holat ta'lim qamrovining kengayganini bildiradi, biroq ilmiy-pedagogik salohiyat bilan muvofiqlashtirilmagan holda amalga oshirilishi ta'lim sifati uchun xavf tug'dirishi mumkin.

Xulosalar: 2021–2024 yillarda ilmiy-pedagogik salohiyat ayrim muassasalarda ijobiy dinamikaga ega bo'lgan. PhD va yuqori H-indeksga ega kadrlar ulushi yetarli darajada emas. WoS/Scopus bazalaridagi nashrlar va patentlar soni pastligicha qolmoqda. Talabalar qabulining keskin oshishi ilmiy va pedagogik salohiyat bilan muvozanatlashishi zarur. Hududiy oliy ta'lim tizimini rivojlantirish uchun ilmiy faoliyatni strategik boshqarish talab etiladi.

PhD va yuqori iqtibosli olimlarni jalb qilish bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqish; WoS/Scopus nashrlari uchun grant va bonus tizimini joriy etish; Patent va startap faoliyatini qo'llab-quvvatlash; Talabalar qabulini ilmiy-pedagogik salohiyat bilan uyg'unlashtirish; Har bir OTMda ilmiy faoliyat bo'yicha aniq KPilar belgilash.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Набиев В. Ш. Образовательный потенциал: дефиниции понятия, структура и значение в компетентностном подходе //Крымский научный вестник. – 2015. – №. 5-2. – С. 3-17.
2. Астафьева Е. Н. Познавательный и образовательный потенциал истории педагогики //Academia. Педагогический журнал Подмосковья. – 2016. – №. 2. – С. 59-62.
3. Шуб М. Л. Современные коммеморативные практики: образовательный и воспитательный потенциал //Челябинский гуманитарий. – 2016. – №. 3 (36). – С. 80-87.
4. Морозова Е. Е., Федорова О. А., Золотухина О. А. Образовательный потенциал проекта «Мир комнатных растений» //Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2011. – Т. 104. – №. 12. – С. 168-172.
5. Губанов Н. Н., Губанов Н. И. Вызов Аполлона и образовательный потенциал общества //Гуманитарный вестник. – 2016. – №. 4 (42). – С. 4.
6. Дегтярева В. В. Образовательный потенциал социальных сетей //Философия образования. – 2010. – №. 3. – С. 30-35.